

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJANOVA IRODAXON RAXMATOVNA

MEVALI DANAKLARDAN OLINGAN MOYNING KIMYOVIY
TARKIBINI TADQIQ QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH
(*PRUNUS CERASUS L.* O'SIMLIGI MISOLIDA)

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

KIMYO FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg'ona-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mamajanova Irodaxon Rahmatovna

Mevali danaklardan olingan moyning kimyoviy tarkibini tadqiq qilish va ulardan oqilona foydalanish (*Prunus cerasus* L. o‘simligi misolida)..... 3

Мамажанова Иродахон Рахматовна

Исследование химического состава масел, полученных из семян плодов, и их рациональное использование (на примере растения *Prunus cerasus* L.)... 21

Mamajanova Irodaxon Rahmatovna

A study of the chemical composition of oils obtained from fruit seeds and their rational use (using the example of the plant *Prunus cerasus* L.)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published

works..... 42

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJANOVA IRODAXON RAXMATOVNA

MEVALI DANAKLARDAN OLINGAN MOYNING KIMYOVIY
TARKIBINI TADQIQ QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH
(*PRUNUS CERASUS L.* O'SIMLIGI MISOLIDA)

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

KIMYO FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg'ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K881 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ibragimov Alidjan Aminovich**
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Abdullayev Shavkat Vaxidovich**
kimyo fanlari doktori, professor
Abduganiyev Baxtiyor Yormaxamatovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» 05 soat 1600 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93).

515 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93, e-mail: fardu-info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «1» 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil «...» ...dagi ...raqamli reestr bayonnomasi).



V.U.Xo'jayev
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi
kimyo fanlari doktori, professor

Sh.Sh.Turg'unboyev
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.V.Abdullayev
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi
kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika va boshqa sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ham oshib bormoqda. Bu korxonalarining to'xtovsiz faoliyati natijasida turli xil sanoat chiqindilari hosil bo'lishiga olib kelmoqda. O'simlik mevalarini qayta ishlanishi natijasida mevalarning qo'shimcha mahsulotlari katta miqdorda chiqindi sifatida olinmoqda. Boshqa mevali o'simliklar qatori oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalarida gilos mevasidan gilos sharbati, quruq meva, vino va turli mahsulotlarni olinishi natijasida qo'shimcha mahsulot sifatida gilos mevasi danagi hosil bo'ladi. Gigiyenik bezarar tabiiy moy olish va ularni tabiiy biologik faol moddalar majmuidan foydalangan holda yangi turdagi yuqori biologik qiymatga ega bo'lgan vositalarni yaratish va samarali foydalanish maqsadida o'simlikning barcha qismlarini kimyoviy tarkibini to'liq tahlil etish va biologik faolligini o'rganish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Jahonda mevali o'simliklar qo'shimcha mahsulotlardan tabiiy, ekologik bezarar moy olish, ularning kimyoviy tarkibi, biologik faolligini tadqiq qilish hamda tibbiyot va kosmetologiya amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mevali o'simliklar danaklari biologik faol moddalar majmuining eng istiqbolli va samarali manbai bo'lib, gilos danagi mag'izi o'z tarkibida biopolimerlar va quyi molekulyar bioregulyatorlar bilan bir qatorda o'ziga xos tarkibga ega moyini saqlab, meva danaklarini qayta ishlash natijasida ulardan oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida turli vositalar va biologik faol qo'shimchalari olish, ularning biologik faolligini o'rganish, me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflash va standartlash muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda mevali o'simliklarni qayta ishlash natijasida ulardan dorivor vositalar va biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqish hamda ularni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlashni ta'minlash borasida amaliy ishlar olib borilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»¹ gi PF-60-sonli farmoniga asosan dorivor vositalar va biologik faol qo'shimchalar olish usullarini tatbiq etish "Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahalliy sharoitda yetishtiriladigan gilos o'simligining turli qismlari va mevasining danak mag'izining mineral va kimyoviy tarkibi hamda biologik faolligini o'rganish hamda o'simlik qo'shimcha mahsulotlari asosida yangi tabiiy davolovchi vositalari va kosmetologik mahsulotlari yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 21-yanvardagi PF-55-sonli "2022-2026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi va 2020 yilning 29

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

oktyabrda PF-6097 son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi farmonlari. 2019 yil 20 martdagi PQ-4246 son "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning VI. «Tibbiyot va farmakologiya» va VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Gilos o'simligining turli qismlari va meva danagi mag'izining kimyoviy birikmalari va biologik faolligini o'rganish borasidagi tadqiqotlar turli mamlakatlarda ko'plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, shu jumladan, A.Wojdylo, P.Nowicka, I.P.Turkiewicz, K.Tkacz, A.A.Carbonell-Barrachina, J.Cao, Q.Jiang, J.Lin, X.Li, C.Sun, K.Chen, F.M.Yilmaz, M.Karaaslan, H.Vardin, F.Blando, C.Gerardi, I.Nicoletti, G.Chrzanowski, C.Sempruch, I.Sprawka, A.Nowak, A.Cyzowska, M.Efenberger, L.Krala, N.Papp, B.Szilvássy, Z.Szabó, J.Nyék, É.Stefanovits-Bányai, M.Simsek, G.Sumnu, S.Sahin, M.M.Özcan, A.Ünver, D.Arslan va boshqa olimlar mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borganlar. MDH davlatlarida L.V.Shevyakova, N.N.Maxova, V.V.Bessonov, M.Yu.Akimov, N.I.Savelev, O.M.Akimova, V.N.Makarov, T.V.Jidyoxina, D.V.Akishina tomonidan gilos o'simligining turli qismlari va meva danagi mag'izining mineral va organik tarkibini o'rganish borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonda dorivor va mevali o'simliklardan olingan moylarning fizik-kimyoviy ko'rastkichilari, lipid va yog' kislota tarkibi hamda biologik faolligini o'rganish borasidagi tadqiqotlar bilan A.U.Umarov, A.I.Glushenkova, S.D.Gusakova, O.Sh.Isamuxamedov, G.A.Stepanenko, N.K.Yuldasheva va boshqalar shug'ullanishgan. Yuqorida sanab o'tilgan olimlar dorivor va madaniy o'simliklar urug'lari va meva danagi mag'izidan olingan moylarining lipid, to'yingan va to'yinmagan yog' kislota, karotinoid va steroid tarkibi hamda moylarning biologik faolligi va toksikologiyasini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan va davolovchi vositalar yaratishning ilmiy poydevori yaratishgan. O'simlik moylarini tasniflash bo'yicha I.R.Asqarov, A.A.Ibragimov, B.Yo.Abdug'aniyev, Q.M.Karimqulov, N.To'xtaboyev, M.Yu.Isaqov va boshqalar shug'ullanishgan.

Ko'p davlatlarda mahalliy sharoitda yetishtiriladigan gilos o'simligining turli qismlari va meva danak mag'izi oqsil miqdori, mineral, aminokislota, flavonoid, vitamin, organik kislota va uglevod tarkibi, efir moylarining uchuvchan birikmalari tarkibi hamda meva danak mag'izi moyining fizik-kimyoviy xususiyatlari, lipidlar va to'yingan va to'yinmagan kislotalar tarkibi, biologik faolligi tadqiq etilishi hamda gilos moyi asosida turli davolovchi vositalar yaratish hamda ularni sinflash va sertifikatlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan meva chiqindilaridan davolovchi vositalar tayyorlash va ishlab chiqarish" yo'nalishi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gilos o'simligining barglari va danak mag'izining kimyoviy tarkibini va biologik faolligini aniqlash hamda meva danak mag'izi moyi asosida davolovchi va kosmetik moylarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gilos o'simligining barglari va meva danak mag'izi tarkibidagi makro va mikroelementlarni sifat va miqdor jihatdan aniqlash;

gilos o'simligining barglari va gulbarglari tarkibidagi uchuvchan birikmalarini aniqlash;

gilos o'simligining barglari va danak mag'izi tarkibidagi oqsil miqdori va aminokislotalar tarkibini aniqlash;

gilos moyining lipid tarkibini aniqlash va yog' kislotalar tarkibini GX usulida tahlil qilish;

gilos o'simligi barglari va danak mag'izi vitaminlar tarkibini YuSSX usulida tahlil qilish;

gilos mevasi danak mag'izidagi organik kislotalar va flavonoidlar tarkibini YuSSX usulida tahlil qilish;

gilos moyining o'tkir zaharligini o'rganish;

gilos moyining muqobil yallig'lanishga ta'sirini tadqiq etish;

gilos gullari efir moylarining mikroblarga qarshi faolligini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona viloyatining ikki tumanida yetishtiriladigan gilos o'simligining barglari, gulbarglari va danak mag'izining kimyoviy birikmalari olingan.

Tadqiqotning predmeti gilos o'simligi barglari, gulbarglari va danak mag'izining kimyoviy tarkibiga kiruvchi to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari, aminokislotalar, oqsillar, uglevodlar, makro va mikroelementlar, flavonoidlar, organik kislotalar, suvda eruvchan vitaminlar hamda o'tkir zaharligi, muqobil yallig'lanishga va mikroblarga qarshi ta'sirini tadqiq etish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda kimyoviy (ekstraksiya, Keldal usuli, metillash, suv bug'i bilan haydash) hamda uskunaviy (yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, gaz xromatografiya-mass-spektrometriya, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya, gaz xromatografiya) usullari va biologik usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor mahalliy gilos o'simligi danak mag'izi moyining lipid, to'yingan va to'yinmagan yog' kislota tarkibi gaz xromatografiyasi usuli yordamida o'rganilgan, danak mag'izi moyining muqobil yallig'lanishga qarshi ta'siri qiyosiy levomekolga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan;

gilos o'simligining barglari va danak mag'izining oqsil miqdori va erkin aminokislota tarkibi, uglevodlar, flavonoidlar, suvda eruvchan vitaminlar, organik

kislotalar miqdori, o'simlik barglari va gulbarglari efir moylarining tarkibi o'rganilgan hamda danak mag'izi barcha oqsil tuzuvchi aminokislotalar va to'yinmagan yog' kislotalarning manbasi ekanligi aniqlangan;

induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida gilos o'simligining barglari va danak mag'izi tarkibida 50 ga yaqin element miqdori hamda gilos o'simligi mevasi danak mag'izi moyining o'tkir zaharlilik ko'rsatkichi V toifaga tegishli ekanligi aniqlangan;

gilos danak mag'izi moyi asosida yaratilgan kosmetik moy uchun kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi Tovar kod raqami ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gilos o'simligi danak mag'izi moyning muqobil yallig'lanishga qarshi ta'siriga ega to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalarning tabiiy manbasi sifatida isbotlangan:

gilos o'simligi danak mag'izi moyining quyoshdan himoya qiluvchi vosita sifatida qo'llash samaradorligi eksperimental tarzda aniqlangan.

gilos o'simligining danak mag'izi moyi asosida kosmetik moy va uni ishlab chiqarish uchun me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilgan:

gilos danak mag'izi moyi asosida olingan kosmetik moyga TIF TN qoidalariga asosan tovar kodi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot ishida zamonaviy fizik tadqiqot usullari GX-MS, YuSSX, ICP-MS, GX hamda biologik usullardan foydalanilganligi, olingan natijalar xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda taqriz qilinuvchi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, gilos o'simligi barglari, gulbarglari va danak mag'izi tarkibidagi efir moylari tarkibi, makro- va mikroelementlari, oqsil va erkin aminokislota tarkibi, lipid hamda to'yinmagan va to'yingan yog' kislotalari, uglevod, flavonoid, suvda eruvchan vitaminlar va organik kislotalar tarkibi isbotlanishganligi bilan asoslanadi. bu esa gilos o'simligining kimyoviy tarkibini yangi ma'lumotlar bilan boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, mahalliy sharoitda yetishtirilayotgan gilos o'simligi danak mag'iz moyining to'yinmagan va to'yingan kislota tarkibi tibbiyotda qo'llaniladigan o'simlik moylarining xomashyo manbai ekanligi ko'rsatilgan. Gilos o'simligi meva danak mag'izi moyi biologik faolligini aniqlash, texnikaviy shart va texnologik yo'riqnoma hamda TIF TN bo'yicha yangi tovar kodi ishlab chiqilganligi farmasevtika sanoatida turli vositalar ishlab chiqirishda xamda ularni xalqaro savdoda qo'llashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Prunus cerasus L.* o'simligining kimyoviy komponentlari va biologik faolligini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

gilos danak mag'izi asosida olingan tabiiy moy olishga texnologik yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (TI 64.507520189-01:2024).

Mazkur texnik yo'riqnoma va GOST 30306-95 texnik shart kosmetik gilos moyi ishlab chiqarish imkonini bergan;

gilos danak mag'izi moyi asosida tabiiy moy uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi bo'yicha yangi: gilos danagi mag'izidan kosmetik moy uchun **3304 10 000 1** tovar kod raqami ishlab chiqilgan hamda Davlat bojxona amaliyotiga joriy qilingan (Bojxona qo'mitasining 2024-yil 4-dekabrda 17/05-24-2122-son ma'lumotnomasi). Natijada, eksport va import jarayonlarida kosmetik moylarni tasniflashni soddalashtirish hamda boj to'lovlarini to'g'ri belgilash imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 3 ta xalqaro 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta xorijiy va 3 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya ishining amalga oshirilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, maqsadi va vazifalari asoslab berilgan. tadqiqotning obyekti va predmeti ifodalangan. O'zbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan. tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. olingan natijalarning ishonchligi asoslangan. natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning *Prunus cerasus* L. o'simligi botanik tavsifi, tarqalish areali, kimyoviy tarkibi va biologik faolligi deb nomlangan birinchi bobida gilos o'simligi botanik tavsifi, tarqalish areali, kimyoviy tarkibi va biologik faolligi, ozuqaviy, manzarali va davolovchi osimlik sifatida hamda xalq tabobatida qo'llanishi, tarkibida aniqlangan birikmalarning biologik faolligi bo'yicha zamonaviy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Gilos o'simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o'rganish hamda moyni kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflash va sertifikatlash**" deb nomlangan ikkinchi bobida gilos barglari va danak mag'izi tarkibidagi azot va umumiy oqsil miqdori, erkin aminokislota tarkibi hamda miqdori, gilos barglari va gulbarglari efir moylari tarkibi, gilos mevasi danak mag'izi moyining ko'rsatkichlari va yog' kislota tarkibi, gilos mevasi danak mag'izi flavonoidlar, vitaminlar, organik kislotalar tarkibi va mineral tarkibining tahlili, gilos moyining o'tkir zaharligini o'rganish tajribalari va muqobil yallig'lanishga ta'siri hamda

gilos gulbarglari uchuvchan moddalarining mikroblarga qarshi faolligini o'rganish natijalari muhokamasi bayon qilingan.

Toshloq va Oltiariq tumanlarida o'sadigan gilosning ikki namunasi bargi va danak mag'izining oqsil miqdorini o'rganish uchun dastlab Kyeddal usulida barg va danak mag'izi namunalarda azot miqdori aniqlandi. Toshloq va Oltiariq tumanlarida o'sadigan gilosning ikki namunaning barglari va danak mag'izi namunalarda azot miqdorini solishtiradigan bo'lsak, ikki namunaning danak mag'izi tarkibidagi azot miqdori faqat 0,05% farq qilsa, Oltiariq gilosining barglarida azot miqdori 0,65% ga ko'pligi aniqlandi(1-jadval).

1-jadval

Gilos barglari va danak mag'izi tarkibidagi azot va umumiy oqsil miqdorining tahlili

№	Namuna	Azot miqdori,%	Umumiy oqsillar miqdori, %
1	Toshloq gilos danak mag'izi	6,16	38,5
2	Toshloq gilos barglari	3,72	23,26
3	Oltiariq gilos danak mag'izi	6,21	38,8
4	Oltiariq gilos barglari	4,37	27,3

Toshloq va Oltiariq tumanlarida o'suvchi gilos o'simligi danak mag'izi va barglari tarkibida erkin aminokislotalar YuSSX usulida tadqiq qilindi. Danak mag'izi tarkibida 20 ta aminokislota mavjudligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval.

Gilos o'simligining barglari va danak mag'izidagi aminokislotalar miqdori (mg/g)

Aminokislotalarning nomi	Toshloq tumani gilos o'simligi barglari	Toshloq tumani gilos o'simligi danak mag'izi	Oltiariq tumani gilos o'simligi barglari	Oltiariq tumani gilos o'simligi danak mag'izi
Konsentratsiya mg/g				
Asparagin kislota	0,631546	0,478206	1,004077	0,354343
Glutamin kislota	0,526797	1,259458	0,343317	0,719105
Serin	4,716837	0,136161	4,396365	0,051658
Glitsin	8,903117	0,321819	10,63834	0,289685
Asparagin	18,0633	0,644602	20,99004	0,581298
Glutamin	5,172311	0,658035	2,915671	0,065073
Sistein	3,991257	0,140984	3,461202	0,136612
Treonin	11,14923	0,063539	7,848159	0,620398
Arginin	1,083963	0,330112	1,578979	0,141649
Alanin	1,434147	0,29731	5,221427	0,21272
Profin	27,21624	1,127096	22,9947	0,565755
Tirozin	2,41179	0,533927	1,09754	0,121713
Valin	0,684403	0,308604	0,564305	0,166008
Metionin	1,142985	0,063317	0,477111	0,111772

Izoleytsin	8.452292	2.194548	2.016729	0.39777
Leytsin	2.16551	0.184785	0.233359	0.083012
Gistidin	30.75587	0.530396	0.406883	0.225153
Triptofan	2.23533	0.346271	1.445905	0.075183
Fenilalanin	4.530542	0.104976	4.064927	0.077872
Lizin	0.217234	0.483567	0.846894	0.109419
Jami	135.4847	10.20771	92.54593	5.106197

Toshloq gilosi bargida aminokislotalar miqdori Oltiariq gilosiga nisbatan 2 marta hamda danak mag'zida 1,46 marta ko'proq ekanligi aniqlandi. O'rganilgan namunlarning barglarida danak mag'ziga nisbatan aminokislotalar miqdori 9,1-26,53 marta ko'pdir.

Gilos barglari va gulbarglari efir moylari fraksiyasi tarkibining tahlili

Toshloq va Oltiariq tumanida o'sadigan gilos o'simligining gulbarglari va barglaridan gidrodistillatsiya usuli bilan olingan efir moylarining kimyoviy komponentlari GX-MS usulida tadqiq qilindi. Toshloq gilosi gulbarglari tarkibidan olingan efir moyining 92,89%, ya'ni elektron kutubxonalar ma'lumotlari bilan taqqoslash va birikmalarning ushlab turish indekslarini (RI) taqqoslash asosida 48 ta birikma aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Toshloq gilosi gulbarglari tarkibida 4-etenil-2-metoksifenol 27,75%; 4-vinilfenol 17,86%; furfural 9,23%; 5-metilfurfural 7,69%; 2-asetilpirol 4,52%; eykazan 2,46% va furfural spirti 2,15% aniqlandi. Qolgan birikmalar 0,05-1,86% miqdorga ega. Bu birikmalar efir moyining umumiy miqdorini 71,66% hamda aniqlangan birikmalarning 77,15% ni tashkili etdi. Efir moyi fraksiyasi fenol hosilalariga boy ekanligini ko'rish mumkin.

Toshloq gilosi barglari tarkibidan olingan efir moyining 93,07%, ya'ni elektron kutubxonalar ma'lumotlari bilan taqqoslash va birikmalarning ushlab turish indekslarini (RI) taqqoslash asosida 59 ta birikma aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Toshloq gilosi barglari tarkibida gerniarin 38,06%; kumarin 28,53%; evgenol 4,74%; pinan 2,61%; geksadekan kislota 2,53; digidrokumarin 2,27%; linalool 1,91% aniqlandi. Qolgan birikmalar 0,05-1,14% miqdorga ega. Bu birikmalar efir moyining umumiy miqdorini 80,65% hamda aniqlangan birikmalarning 86,65% ni tashkili etdi. Efir moyi kumarin va uni hosilalariga boy ekanligini ko'rish mumkin.

Oltiariq gilosi gulbarglari tarkibidan olingan efir moyining 88,05%, ya'ni elektron kutubxonalar ma'lumotlari bilan taqqoslash va birikmalarning ushlab turish indekslarini (RI) taqqoslash asosida 33 ta birikma aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Oltiariq gilosi gulbarglari tarkibida 4-etenil-2-metoksifenol 17,90%; 4-vinilfenol 16,59%; nilufar spirti D 9,05%; nilufar spirti C 8,79%; trikozan 4,25%; nonan kislota 3,88%; estragol 3,86%; nonanal 1,97%; eykazan 1,80%; santen 1,78% va 5-metilfurfural 1,71% aniqlandi. Qolgan birikmalar 0,05-1,14% miqdorga ega. Bu birikmalar efir moyining umumiy miqdorini 71,58% hamda aniqlangan birikmalarning 81,3% ni tashkili etdi. Bu namunada xam efir moyi fenol hosilalariga boy ekanligini ko'rish mumkin.

Oltiariq gilosi barglari tarkibidan olingan efir moyining 79.44%, ya'ni elektron kutubxonalari ma'lumotlari bilan taqqoslash va birikmalarning ushlab turish indekslarini (RI) taqqoslash asosida 57 ta birikma aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Oltiariq gilosi barglari tarkibida gerniarin 29.39%, kumarin 10.04%, evgenol 6.56%; digidrokumarin 5.04%; geksadekan kislota 4.13%; terpinolin 3.52%; fitol 3.41% aniqlandi. Qolgan birikmalar 0.06-1.43% miqdorga ega. Bu birikmalar efir moyining umumiy miqdorini 62.09% hamda aniqlangan birikmalarning 78,16% ni tashkli etdi. Efir moyi kumarin va uni hosilalariga boy ekanligini ko'rish mumkin.

Gilos mevasi danak mag'izi moyining ko'rsatkichlari va yog' kislota tarkibining tahlili

Gilos o'simligi ikki namunasi danak mag'izining moy tarkibini o'rganildi. Dastlab Sokslet asbobida ekstraksiyon benzin bilan maydalangan mag'izidan moy ekstraksiya qilib olindi. Moyning chiqish unumi birinchi namuna uchun 35.52%, ikkinchi namuna uchun 35,61%ni tashkil etdi.

Gilos ikki namunasi danak mag'izining namligi, kislota soni, sindirish ko'rsatkichi va sovunlanmaydigan moddalar miqdori aniqlangan (3-jadval).

Gilos o'simligining ikki namunasi danak mag'izining kislota tarkibini aniqlash uchun neytral lipid (NL), glikolipid (GL), va fosfolipid (FL) fraksiyalari ishqorning suvli eritmasi bilan gidrolizlandi hamda yangi tayyorlangan diazometan eritmasi bilan metillash natijasida olingan yog' kislotalar metil efirlarining gaz xromatografiyadagi spektri olindi. Danak mag'izi tarkibidagi NL, GL va FL quyidagi yog' kislotalari tarkibiga ega (4-jadval).

3-jadval

Gilos o'simligi danak mag'izi moyi tarkibidagi lipidlarning miqdori

Nomlanishi	Tarkib	
	1	2
Namlik va uchuvchan moddalar, danak mag'izi massasiga nisbatan %	5.07	5.03
Amaldagi namlikda neytral lipidlar (moylilik) unumi, danak mag'izi massasiga nisbatan, %	35.52	35.61
Mutloq quruq moddaga nisbatan neytral lipidlar unumi, danak mag'izi massasiga nisbatan, %	37.41	37.49
Gidrolizlanmaydigan moddalar miqdori, neytral lipidlar massasiga nisbatan %	1.87	1.92
Sindirish ko'rsatkichi, n_D^{20}	1.4768	1.4800
Kislota soni, mg KOH/g	0,91	0,97
Qutbli lipidlar (QL), danak mag'izi massasiga nisbatan %		
shu jumladan:		
glikolipidlar	0,78	0,65
fosfolipidlar	0,32	0,25
	0,46	0,40

1-Toshloq gilosi; 2-Oltiariq gilosi

4-jadval

**Gilos danak mag'izi moyining NL, GL va FL yog' kislotalar tarkibi, (%)
kislota massasi hisobida**

Yog' kislotalari	NL		GL		FL	
	1	2	1	2	1	2
Miristin, 14:0	Iz.	Iz.	0,84	0,65	0,18	0,15
Pentadekan, 15:0	-	6,21	0,42	26,53	-	27,98
Palmitin, 16:0	6,28	0,35	34,01	-	32,64	0,20
Palmitolein, 16:1	0,36	Iz.	-	Iz.	0,22	0,45
Margarin, 17:0	-	1,81	0,63	8,80	0,52	7,60
Stearin, 18:0	1,65	28,76	10,80	20,37	8,89	25,99
Olein + Linolen, 18:1+18:3 ω9+ ω3	31,64	48,39	23,17	36,97	28,56	34,54
Linol, 18:2 ω6	48,22		23,06		26,12	
Araxin, 20:0	0,16	0,76	1,93	1,11	1,33	1,06
Eykozen, 20:1 ω11	0,08	0,26	2,69	1,69	0,97	0,51
Begen, 22:0	0,16	0,15	0,63	2,25	0,25	1,22
Lignocerin, 24:0	0,10	0,09	0,31	-	-	-
Nervon, 24:1	-	0,24	-	-	-	-
α-eleostearin	10,75	12,98	1,51	1,63	0,35	0,30
∑ to'yingan yog' kislotalar	8,95	9,02	49,57	39,34	43,81	38,46
∑ to'yinmagan yog' kislotalar	91,05	90,98	50,43	60,66	56,19	61,54

1-Toshloq gilosi; 2-Oltiariq gilosi

Gilos mevsi danak mag'izi flavonoidlar tarkibining tahlili

Toshloq va Oltiariq giloslari danak mag'izining flavonoid tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida o'rganildi. Tahlillarda danak mag'izi tarkibidagi tegishli flavonoidlar standart flavonoidlar eritmasi bilan solishtirish yordamida aniqlandi. Tekshirilgan gilos namunalarida digidrokversitin, lyutionin, kversitin, rutin, senerozid, apiginin va salidrozyd flavonoidlar aniqlandi. Flavonoidlarning umumiy miqdori Toshloq gilosi uchun 16.75 mg/g va Oltiariq gilosi uchun 29.11 mg/g ni tashkil etdi (5-jadval).

5-jadval

Gilos o'simligi danak mag'izidagi flavonoidlar va miqdori.

Flavonoidlar	Toshloq gilos danak mag'izi	Oltiariq gilos danak mag'izi
	Konsentratsiya, mg/gr	
Digidrokversitin	3,01	2,2
Lyutionin	1,6	2,1
Kversitin	2,5	6,6
Rutin	3,75	4,11
Senerozid	1,01	0,85
Apiginin	3,7	11,9
Salidrozyd	1,18	1,35

Gilos mevasi barglari va danak mag'izi vitaminlar tarkibining tahlili

Toshloq va Oltiariq giloslari barglari va danak mag'izining vitamin tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida o'rganildi. Tahlillarda gilos barglari va danak mag'izi tarkibidagi tegishli vitaminlar suvda eruvchan vitaminlarning standart eritmasi bilan solishtirish yordamida aniqlandi. Tekshirilgan gilos namunalari B₁, B₂+B₁₂, B₃, B₆, B₉, va C vitaminining miqdori aniqlandi. B₂ va B₁₂ vitaminlar cho'qqilari xromatogrammada yaqin joylashishi tufayli ularning summar miqdori keltirilgan (6-jadval).

6-jadval

Gilos o'simligi bargi va danak mag'izidagi vitaminlar miqdori

Vitaminlar	Toshloq gilos bargi	Toshloq gilos danak mag'izi	Oltiariq gilos bargi	Oltiariq gilos danak mag'izi
	Konsentratsiya, mg/gr			
B ₁	0,0512	0	0,0237	0,046192
B ₃	0,0288	0,283061	0	0,044533
B ₆	1,8021	4,682455	1,120146	1,664216
B ₂ (>)+B ₁₂	2,6898	11,29679	3,848141	2,06581
C	0,0281	0,04223	0	0,023313

Gilos mevasi danak mag'izidagi organik kislotalar tarkibining tahlili

Toshloq va Oltiariq giloslari danak mag'izining organik kislota tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida o'rganildi. Tekshirilgan gilos namunalari oksalat kislota, vino kislota, limon kislota va qahrabo kislotalar aniqlandi. Flavonoidlarning umumiy miqdori Toshloq gilosi uchun 8,071 mg/g va Oltiariq gilosi uchun 5,28 mg/g ni tashkil etdi (7-jadval). Toshloq va Oltiariq giloslari danak mag'izi tarkibida vino kislota eng ko'p miqdorda aniqlandi. Vino kislotasi Toshloq gilosi danak mag'izi kislota tarkibining 49,44% va Oltiariq gilosining 64,2% ni tashkil etdi. Toshloq gilosida qahrabo kislota Oltiariq gilosiga nisbatan 5,33 marta ko'p bo'lgan

7-jadval

Gilos o'simligi danak mag'izidagi organik kislotalar miqdori

Organik kislotalar	Toshloq gilosi danak mag'izi	Oltiariq gilosi danak mag'izi
	Konsentratsiya, mg/g	
Oksalat kislota	0,191	0,15
Vino kislota	3,99	3,39
Limon kislota	2,77	1,53
Qahrabo kislota	1,12	0,21

Gilos barglari va mevasi danak mag'izidagi uglevodlar tarkibining tahlili

Toshloq va Oltiariq giloslari barglari va danak mag'izi tarkibidagi uglevodlar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli bilan tadqiq qilindi. Toshloq gilosi danak mag'izida aniqlangan uglevodlarning umumiy miqdori 1,06% ni hamda Oltiariq gilosida 0,84% ni tashkil etdi. Barcha o'rganilgan namunalarda miqdor

jihatdan glyukoza ustunlik qiladi. Gilos danak mag'izida glyukoza miqdori, aniqlangan uglevod miqdoriga nisbatan Toshloq gilosida 68,87% va Oltiariq gilosida 73,8% ga tengligi aniqlandi. Barglarida glyukoza miqdori Toshloq gilosi uchun 67,74% va Oltiariq gilosi uchun 60.71% ga tengligi aniqlangan (8-jadval).

8-jadval

Gilos o'simligi barglari va danak mag'izidagi uglevodlar miqdori

Uglevodlar	Konsentratsiya, %			
	Toshloq gilosi danak mag'izi	Toshloq gilosi barglari	Oltiariq gilosi danak mag'izi	Oltiariq gilosi barglari
Fruktoza	0.21	0.09	0.20	0.08
Glyukoza	0.73	0.21	0.62	0.17
Saxaroza	0.04	0.00	0.01	0.03
Maltoza	0.08	0.00	0.02	0.01
Jami;	1,06	0,31	0,84	0,28

Gilos barglari va danak mag'izi mineral tarkibining tahlili

Toshloq va Oltiariq giloslari barglari va danak mag'izining mineral tarkibi unduktiv bog'langan plazmalı mass-spektrometriya usulida o'rganildi. O'rganilgan namunalar tarkibida 61 ta elementning miqdori aniqlandi (9-jadval). Toshloq gilosi barglari tarkibida 42359.1 mg/kg va danak mag'izida 28260.298 mg/kg hamda Oltiariq gilosi barglari tarkibida 49062.533 mg/kg va danak mag'izida 28994.84 mg/kg miqdorda minerallar aniqlandi. Oltiariq gilosi mineral tarkibi miqdor jihatdan Toshloq gilosidan ustun ekanligi namoyon bo'ldi.


9-jadval.

Gilos o'simligi barglari va danak mag'izidagi makro va mikroelementlar miqdori (mg/kg).


№	Element	Toshloq gilosi barglari	Toshloq gilosi danak mag'izi	Oltiariq gilosi barglari	Oltiariq gilosi danak mag'izi
1	Litiv(Li)	4.20	2.00	6.00	1.60
2	Berilliy(Be)	<0.05	<0.05	<0.05	<0.05
3	Bor(B)	80.0	42.0	100	43.0
4	Natriy(Na)	820	580	1100	670
5	Magniy(Mg)	6800	4800	7600	4900
6	Alyuminiy(Al)	520	280	740	180
7	Fosfor(P)	3300	4800	3500	5100
8	Kaliy(K)	19000	8400	21000	8800
9	Kaltsiy(Ca)	11000	8800	14000	8700
10	Skandiy(Sc)	0.400	0.230	0.600	0.220
11	Titan(Ti)	26.0	27.0	33.0	29.0
12	Vanadiy(V)	0.660	0.390	1.40	0.540
13	Xrom(Cr)	0.800	0.780	1.90	1.10
14	Marganets(Mn)	41.0	28.0	35.0	26.0

15	Temir(Fe)	470	260	660	230
16	Kobalt(Co)	0.210	0.140	0.300	0.130
17	Nikel(Ni)	1.90	1.30	2.40	2.40
18	Mis(Cu)	15.0	21.0	12.0	88.0
19	Rux(Zn)	28.0	40.0	27.0	43.0
20	Galliy(Ga)	0.180	0.110	0.210	2.80
21	Mishyak(As)	0.440	0.200	0.490	0.280
22	Selen(Se)	0.510	0.360	0.430	0.480
23	Rubidiy(Rb)	19.0	12.0	8.80	14.0
24	Strontsiy(Sr)	210	150	210	110
25	Ittriy(Y)	0.160	0.053	0.250	<0.10
26	Sirkoniy(Zr)	0.130	0.053	0.190	<0.10
27	Niobiy(Nb)	0.017	0.003	0.025	0.002
28	Molibden(Mo)	0.170	0.230	0.230	0.260
29	Seziy(Cs)	0.110	0.047	0.100	0.054
30	Bariy(Ba)	19.0	14.0	20.0	51.0
31	Lantan(La)	0.280	0.087	0.470	0.350
32	Seriy(Ce)	0.500	0.150	0.840	0.280
33	Prazeodim(Pr)	0.056	0.015	0.094	0.020
34	Neodim(Nd)	0.220	0.061	0.340	0.054
35	Samariy(Sm)	0.034	0.012	0.060	0.018
36	Evropiy(Eu)	0.011	<0.01	0.017	0.130
37	Gadoliniy(Gd)	0.040	0.015	0.058	0.019
38	Toriy(Th)	0.080	0.020	0.110	0.046
39	Uran(U)	0.086	0.042	0.140	0.054

Gilos barglari danak mag'iziga nisbatan ko'proq miqdorda minerallar saqlaydi. Gilos barglari va danak mag'izida beshta makroelement aniqlandi: natriy, magniy, fosfor, kaliy va kaltsiy (1-rasm). Makroelementlarning miqdori Toshloq gilosi barglarida 40290 mg/kg (95.11%) va danak mag'izida 27380 mg/kg (96.89%) hamda Oltiariq gilosi barglarida 47200 mg/kg(96.20%) va danak mag'izida 28170 mg/kg (97,16%) tashkil etgan. Ikkita namunada kaliy va bitta namuna kaltsiy eng ko'p miqdorga ega. Makroelementlar miqdori Toshloq gilosi barglarida Na, P, Mg, Ca, K va danak mag'izida Na, P = Mg, K, Ca hamda Oltiariq gilosi barglarida Na, P, Mg, Ca, K va danak mag'izida Na, Mg, P, Ca, K qatorlarda ortib boradi. Gilos namunalari tarkibida 53 ta mikroelementning miqdori aniqlandi (2-rasm).



1-rasm. Gilos o'simligi barglari va danak mag'izidagi makroelementlar miqdori.



2-rasm. Gilos o'simligi barglari va danak mag'izidagi mikroelementlar miqdori.

Ko'proq miqdorga ega bo'lgan mikroelementlarga quyidagilar kiradi: Al, Fe, Sr, B, Mn, Zn, Ti, Rb, Cu, Ba, Li. O'rganilgan uchta namunada alyuminiy va bitta namunada temir eng ko'p miqdorga ega. Mikroelementlar miqdori quyidagi ketma ketlikda ortib boradi: Toshloq gilosi barglarida: Li, Cu, Rb, Ba, Ti, Zn, Mn, B, Sr, Fe, Al, va danak mag'izida: Li, Rb, Ba, Cu, Ti, Mn, Zn, B, Sr, Fe, Al hamda Oltiariq gilosi barglarida va danak mag'izida o'xshash tartibda ortib boradi. Mikroelementlar bir-birini miqdori bilan keskin farq qiladi. Eng yuqori miqdorga ega alyuminiyning miqdori eng kam miqdorga ega lityga nisbatan 462 marta ko'pdir.

Gilos moyining o'tkir zaharligini o'rganish tajribalari tahlili

Tajriba guruhlaridagi hayvonlar nazorat guruhi bilan solishtirilganda, surtilgan dozada sichqonlarning tana massasida tajriba davomida (7 va 14 kunlarida) pasayish kuzatilmadi ($p > 0,05$). Gilos moyining massasiga nisbatan olingan 2000 mg/kg dozada sichqonlar teri yuzasiga surtish bilan bir marta surtilgandagi o'rtacha o'lim dozasi – $LD_{50} > 2000$ mg/kg ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar 10-jadvalda keltirilgan.

10-jadval

Gilos moyiningning erkak sichqonlarda o'tkir zaharlash xususiyatlarini baholash ko'rsatkichlari ($M \pm m, n=5$)

Guruhlar	Doza mg/kg, ml	Hayvonlarning umumiy soni/o'lgan hayvon soni	Hayvonlarning o'rtacha tana vazni(g) (1 kun)	Hayvonlarning o'rtacha tana vazni(g) (7 kun)	Hayvonlarning o'rtacha tana vazni(g) (14 kun)	LD ₅₀
Nazorat	0,5 ml	5/0	22,0 ± 0,3	22,8 ± 0,4	23,4 ± 0,8	-
Gilos moyi	2000 mg/kg	5/0	21,1 ± 0,2	21,8 ± 0,3	22,9 ± 0,4	>2000 mg/kg

Tadqiqotda gilos moyi shaklidagi moddasining 2000 mg/kg dozada kiritilgan hayvonlar xloroform bilan hushsizlantirilib dekapitasiya qilindi, patologik o'zgarishlarning differensial samaradorligi va moddaning ichki organlarga ta'sirini aniqlash uchun morfologik va patologik o'rganib chiqildi va olingan natijalar 11-jadvalda keltirilgan.

11-jadval

Gilos moyining ichki organlarga ta'sirini aniqlash natijalari (2000 mg/kg, $M \pm m, n=5$)

Nomlanishi	Nazorat	Gilos moyi
Tana vazni	23,4 ± 0,8	22,9 ± 0,4
Jigar	1401,8 ± 31,5	1398,5 ± 29,6
O'pka	222,5 ± 11,3	222,1 ± 10,2
Yurak	185,4 ± 7,2	182,3 ± 6,5
Buyrak	204,0 ± 8,0	199,5 ± 7,4
Timus	21,2 ± 0,5	21, ± 0,4
Limfauz	11,7 ± 0,3	11,1 ± 0,4
Qora taloq	269,7 ± 8,4	266,6 ± 8,1

Izoh-* $P < 0,05$ Sog'lom hayvonga nisbatan

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, moyining sichqonlar teri yuzasiga surtish orqali 2000 mg/kg dozada (moysimon massasiga nisbatan) bir marotaba surtilganda va olingan natijalar OECD bo'yicha tasniflanganda, ushbu namuna V-deyarli zaharli bo'lmagan kimyoviy moddalar sinfiga mansubligi va LD₅₀ > 2000 mg/kg ekanligi aniqlandi.

Gilos moyining muqobil yallig'lanishga ta'siri tajribalari tahlili

Preparatining antialterativ ta'siri terining yarasi modelida o'rganildi. Nazorat hayvonlarida jarohatdan bir kun o'tgach, yaralar maydoni operatsiya qilinganidan 1,4 baravar ko'pdir. Nazorat kalamushlarida bu davrda yaraning chetlari va pastki qismi shishgan, sirtida eksudat bor edi. Kuzatishning 3-7 kunida yaralarning xarakteristikallari bir xil bo'lib qoldi. Yaraning yuzasida ingichka jigarrang-

binafsha rangli qobiq hosil bo'lib, u yaraning pastki qismiga ancha mahkam yopishgan. (12-jadval).

12-jadval

Gilos moyining yara yuziga surish orqali, har kuni 200 va 150-100 mg/kg dozalarda, Levomekol mazi 200 mg/kg dozada davolangan kalamushlarning (14 kun) yara yuzasi sohasidagi o'zgarishlar (M+m; n=5;)

Nomlanishi	Nazorat	Levomekol	200 mg/kg	150 mg/kg	100 mg/kg
Boshlang'ich	3,1 ± 0,012	3,2 ± 0,087	3,2 ± 0,087	3,3 ± 0,085	3,2 ± 0,031
1-kun	3,0 ± 0,051	2,6 ± 0,056	2,7 ± 0,083	3,1 ± 0,066	3,1 ± 0,027
2-kun	2,9 ± 0,063	2,4 ± 0,053	2,5 ± 0,083	3,0 ± 0,065	3,0 ± 0,027
3-kun	2,8 ± 0,063	2,4 ± 0,053	2,3 ± 0,073	2,9 ± 0,083	2,9 ± 0,03
4-kun	2,7 ± 0,032	1,9 ± 0,068	1,4 ± 0,024	2,6 ± 0,095	2,6 ± 0,029
5-kun	2,6 ± 0,01	1,2 ± 0,022	1,1 ± 0,033	2,4 ± 0,061	2,4 ± 0,022
6-kun	2,4 ± 0,035	1,0 ± 0,029	0,8 ± 0,025	2,3 ± 0,036	2,3 ± 0,021
7-kun	2,2 ± 0,036	0,7 ± 0,015	0,6 ± 0,025	2,1 ± 0,035	2,2 ± 0,014
8-kun	2,1 ± 0,049	0,5 ± 0,015	0,5 ± 0,023	2,0 ± 0,024	2,1 ± 0,012
9-kun	2,0 ± 0,075	0,5 ± 0,015	0,4 ± 0,023	1,9 ± 0,006	2,0 ± 0,012
10-kun	1,9 ± 0,057	0,4 ± 0,013	0,3 ± 0,022	1,5 ± 0,006	1,8 ± 0,011
11-kun	1,7 ± 0,039	0,3 ± 0,007	0,2 ± 0,012	1,1 ± 0,012	1,4 ± 0,01
12-kun	1,5 ± 0,025	0,2 ± 0,012	0,0 ± 0,0	0,8 ± 0,014	1,2 ± 0,006
13-kun	1,2 ± 0,022	0,0 ± 0,0	0,0 ± 0,0	0,5 ± 0,005	0,9 ± 0,005
14-kun	1,0 ± 0,017	0,0 ± 0,0	0,0 ± 0,0	0,2 ± 0,005	0,6 ± 0,01

* p<0,05, ** - p<0,01 nazoratga nisbatan

Gilos danak mag'izi moyining xalqaro savdo uchun sinflash.

Gilos danak mag'izidan olingan moyni to'liq ilmiy tahlil qilish natijalariga ko'ra, TIF TN ni VI bo'lim 33 guruh bo'yicha tasniflash tavsiya etildi. Gilos danak mag'izidan olingan moy o'zining kimyoviy tarkibi va biologik faolligiga ko'ra. 3304 tovar pozitsiyasi asosida tasniflashga tavsiya etildi.

3304 10 000 0 – lablar makijaji uchun vositalar

Gilos moyi kosmetik moy sifatida tasniflanib uning uchun **3304 10 000 1-gilos danagi mag'izidan kosmetik moy** uchun kod raqami tavsiya etildi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mazkur kod raqami Tovarlarini tasniflash va kodlashning uyg'unlashtirilgan tizim asosida joriy etilgan Tashqi iqtisodiyot faoliyati Tovarlar nomenklaturasining navbatdagi tahririni ishlab chiqish jarayoniga taklif sifatida qabul qilindi.

Dissertatsiya ishining **“Gilos o'simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o'rganish tadqiqotlari”** deb nomlangan uchinchi bobida gilos o'simligi barglari va danak mag'izi tarkibidagi makro va mikroelementlar, flavonoidlar, uglevodlar, vitaminlar va organik kislotalar, moy miqdori, neytral va qutbli lipidlar, yog' kislotalari tarkibi, oqsil va aminokislota tarkibi hamda barglari va gulbarglari tarkibidagi efir moylari tarkibini aniqlash tajribalari keltirilgan.

XULOSALAR

Farg'ona viloyati Toshloq va Oltiariq tumani hududlarida o'suvchi gilos o'simligi barglari, gulbarglari va meva danak mag'izining kimyoviy tarkibi hamda biologik faolligi tadqiqat natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida *Prunus cerasus* L. o'simligi barglari va danak mag'izining mineral tarkibini o'rganish natijasida namunalar tarkibida 50 dan ortiq makro- va mikroelementning miqdori aniqlandi va unga o'simlik o'sish joyi ta'siri mavjudligi ko'rsatildi.

2. Gilos o'simligining o'rganilgan namunalarida flavonoid, suvda eruvchan vitaminlar, uglevod hamda organik kislotalar tarkibi va miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli bilan isbotlandi.

3. Gilos bargi va gulgurlarining efir moylari tarkibi xromato-mass-spektrometriya usuli bilan tadqiq qilish natijasida 60 ga yaqin modda mavjudligi aniqlandi va ularning miqdori isbotlandi. Gilos barglari kumarin hosilalari hamda gulgurlari fenol hosilalariga boy ekanligi aniqlandi.

4. Gilos mevasi baglari o'rganilgan namunalarda barcha 20 ta oqsil tuzuvchi aminokislotalar mavjudligi hamda leytsin, prolin va asparagin yuqori miqdorda ekanligi isbotlandi.

5. Mahalliy gilos o'simligi danak mag'izi moyining lipidlar, glikolipidlar, fosfolipidlar va yog' kislotalari tarkibi birinchi marta o'rganildi hamda 15 turdagi to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalarining miqdorlari gaz xromatografiyasi usuli yordamida isbotlandi. Gilos moyi neytral lipidlar fraksiyasi tarkibida 91% gacha to'yinmagan yog' kislotalar, jumladan linol kislotalarining miqdori 49% gacha mavjudligi isbotlandi.

6. Gilos danak moyining o'tkir zahariligi va muqobil yallig'lanishga qarshi ta'siri hamda gilos guli efir moylari fraksiyasining mikroblarga qarshi faolligi o'rganildi. Gilos moyinig 200 mg/kg dozada muqobil yallig'lanishga qarshi ta'siri qiyosiy levomekolga nisbatan yuqori faollikka ega ekanligi isbotlandi.

7. Gilos danak mag'izi moyi (SSV Sifat Sertifikati N 455986. 14.08.2024y.) asosida muqobil yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega yangi kosmetik moy ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlandi. Shuningdek, TIF TN qoidalari asosida sinflanib, unga yangi 3304 10 000 1 tovar kodi ishlab chiqildi (O'z Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 04.12.2024 yilgi 17/05-24-2122 sonli ma'lumotnomasi).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/30.12.2019.К.05.01 ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАМАЖАНОВА ИРОДАХОН РАХМАТОВНА

**ИССЛЕДОВАНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МАСЕЛ,
ПОЛУЧЕННЫХ ИЗ СЕМЯН ПЛОДОВ, И ИХ РАЦИОНАЛЬНОЕ
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ (НА ПРИМЕРЕ РАСТЕНИЯ *PRUNUS CERASUS L.*)**

02.00.09-Химия товаров

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/K881

Докторская диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на сайте Научного совета (www.fdu.uz) и Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Ибрагимов Алиджан Аминович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты Абдуллаев Шавкат Вахидович
доктор химических наук, профессор

Абдуганиев Бахтиёр Ёрмахаматович
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация: Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится 15 05 2025 года в 16 00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.05.01 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер № 313). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93; e-mail: farduinfo@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан 04 05 2025 года.
(Протокол рассылки № _____ от " _____ " _____ 2025 года).



В.У.Хужаев
Председатель Научного совета по
присуждению учёной степен,
д.х.н., профессор

Ш.Ш.Тургунбаев
Учёный секретарь Научного
совета по присуждению учёной степен, PhD

Ш.В.Абдуллаев
Председатель Научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степен, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня в мире в результате бурного развития химических, пищевых, фармацевтических и других отраслей промышленности увеличиваются и объемы производства. Это приводит к образованию различных промышленных отходов в результате безостановочной деятельности предприятий. В результате переработки плодов растений в виде отходов в больших количествах получают побочные продукты их переработки. Наряду с другими плодовыми растениями, на предприятиях по переработке пищевых продуктов, где из плодов вишни производят вишневый сок, сухофрукты, вино и различные другие продукты, в качестве отхода образуются косточки плодов вишни. Большое практическое значение имеет полный анализ химического состава всех частей растения, в том числе косточек, и изучение их биологической активности для получения гигиеничного натурального масла и создания нового вида продукции с высокой биологической ценностью, содержащей комплекс природных биологически активных веществ.

В мире ведутся научные исследования по получению натуральных, экологически безопасных масел из побочных продуктов плодовых растений, исследованию их химического состава, биологической активности и применению в пищевой промышленности, медицине и косметологии. Семена плодовых растений являются наиболее перспективным и эффективным источником биологически активных веществ для получения из них различных средств и биологически активных добавок в пищевой и фармацевтической промышленности, важное значение имеет изучение их биологической активности, разработка нормативной документации и классификация и стандартизация на основе химического состава.

В нашей республике ведутся практические работы и достигаются некоторые результаты по разработке лекарственных средств и биологически активных добавок в результате переработки плодовых растений, а также по обеспечению их классификации и сертификации по химическому составу. Согласно Указу Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», определены важные задачи, направленные на реализацию методов получения лекарственных средств и биологически активных добавок, «Увеличение объема производства продукции фармацевтической промышленности в три раза и доведение уровня обеспечения внутреннего рынка отечественными лекарственными средствами до 80 процентов»¹. В связи с этим актуальным является изучение минерально-химического состава и биологической активности различных частей вишни и ее плодов, а также создание новых натуральных лекарственных и косметологических препаратов на основе

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы»

